

## O'RTA UMUMTA'LIMDA LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLARNI O'QITISH AHVOLI

Norov Jamshid Nurulloevich,  
tayanch doktorant. Buxoro davlat pedagogika instituti

*Annotatsiya.* Maqolada adabiyot dasturlari va ta'limining maqsad hamda vazifalari o'rganilgan, o'rta umumta'lim maktablarida xorij adiblari asarlarining o'qitilishi ahvoli tahlil etilgan, ulardagi lingvokulturologik birliklar aniqlangan, ularni o'qitish jarayonida yuzaga keladigan murakkabliklar ochib berilgan, lingvokulturologik birliklarning adabiyot darsliklarida aks etishi va izohiga doir tanqidiy qarashlar ifodalangan, xorij adiblari asarlari tilida qo'llangan ayrim lingvomadaniy birliklar, chunonchi, o'xshatish, metafora, allyuziv nomlar, realiyalar kabilarning o'ziga xos lingvistik va madaniy xususiyatlari tadqiq etilgan, ularning o'z va ko'chma ma'nolari o'zbek xalqining o'ziga xos badiiy-estetik tafakkur tarzi, qadriyat va urf-odatlar bilan qiyosan o'rganilgan, madaniy-ma'naviy jihatdan shakllanish omillari aniqlangan hamda ularni adabiy ta'limga tatbiq etishning ilmiy-metodik tizimi belgilab berilgan, ularni o'qitish metodikasiga oid ayrim tavsiyalar berilgan.

Shuningdek, maqolada lingvokulturologiyaning milliy tafakkur, ong, madaniyat, ma'naviyat, mentalitet, xarakter, til bilan munosabatdorligi kabi masalalar ham tahlilga tortilgan. Lingvokulturologik birliklarni o'qitishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligi aytib o'tilgan: mazkur birliklarni muayyan xalqning xususiyatlari bilan o'zaro aloqador tarzda o'rgatish kerak; turli tillarga tegishli xalqlar dunyoni turlicha tushinishi va his etishi alohida e'tiborga olinishi lozim; har bir tilga xos bo'lgan xususiyat o'sha xalqning mentalitetiga ta'sir qilishini anglash shart; pedagogika fani bo'yicha ilmiy izlanishlar tilshunoslik, tarix va falsafa fanlari bilan o'zaro aloqadorlikda olib borilishi lozim.

Kalit so'zlar: maktab, adabiyot, madaniyat, lingvokulturologiya, lingvomadaniyat, allyuziya, realiya, antroponim, pedagogika, metodika.

## СИТУАЦИЯ С ОБУЧЕНИЕМ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ЕДИНИЦ В СРЕДНЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Норов Джамишид Нуруллоевич,  
Докторант Бухарского государственного педагогического института

*Аннотация:* В статье рассматриваются цели и задачи литературных программ и образования, анализируется ситуация преподавания произведений иностранных писателей в общеобразовательных школах, выявляются лингвокультурные единицы в них, выявляются сложности, возникающие в процессе их обучения, раскрывается значение лингвокультурных единиц в литературе, критические взгляды на их отражение и интерпретацию выражены в учебниках, специфические лингвокультурные особенности некоторых лингвокультурных единиц, используемых в языке произведений зарубежных писателей, такие как сравнения, метафоры, аллюзивные названия исследуются реалии и т. д., изучаются их собственные и переносные значения в сравнении с уникальным художественно-эстетическим образом мышления, ценностями и традициями узбекского народа, определяются факторы культурно-духовного становления, а также определен научный метод их применения в методической системе литературного образования, даны некоторые рекомендации по методике их преподавания.

В статье также анализируются такие вопросы, как связь лингвокультурологии с национальным мышлением, сознанием, культурой, духовностью, менталитетом, характером и языком. Отмечено, что при преподавании лингвокультурных единиц уместно обратить внимание на следующее: эти единицы должны преподаваться во взаимосвязи с особенностями конкретной нации; особое внимание следует обратить на то, что народы, принадлежащие к разным языкам, по-разному понимают и чувствуют мир; необходимо понимать, что особенность каждого языка влияет на менталитет этого народа; научные исследования в области педагогики должны проводиться в связи с науками языкознания, истории и философии.

Ключевые слова: школа, литература, культура, лингвокультура, лингвокультура, аллюзия, реальность, антропоним, педагогика, методика.

## SITUATION OF TEACHING LINGUOCULTURAL UNITS IN SECONDARY EDUCATION

Norov Jamshid Nurulloevich,  
PhD student of Bukhara State Pedagogical Institute

*Abstract.:* The article examines the goals and tasks of literature programs and education, analyzes the situation of teaching works of foreign writers in secondary schools, identifies the linguistic and cultural units in them, reveals the complications that arise in the process of teaching them, reveals the significance of the

*linguistic and cultural units in literature. critical views on their reflection and interpretation are expressed in textbooks, specific linguistic and cultural features of some linguistic and cultural units used in the language of foreign writers' works, such as similes, metaphors, allusive names, realities, etc., are researched, their own and figurative meanings are studied in comparison with the unique artistic-aesthetic way of thinking, values and traditions of the Uzbek people, the factors of cultural-spiritual formation are determined, and the scientific method of applying them to literary education methodical system is defined, some recommendations are given regarding the method of teaching them.*

*The article also analyzes issues such as the relationship of lingua-cultural studies with national thinking, consciousness, culture, spirituality, mentality, character, and language. It has been mentioned that it is appropriate to pay attention to the following in the teaching of linguistic and cultural units: these units should be taught in a way that is interconnected with the characteristics of a particular nation; special attention should be paid to the fact that peoples belonging to different languages understand and feel the world differently; it is necessary to understand that the characteristic of each language affects the mentality of that nation; scientific research in the field of pedagogy should be carried out in connection with the sciences of linguistics, history and philosophy.*

*Key words: school, literature, culture, linguistic culture, linguistic culture, allusion, reality, anthroponomy, pedagogy, methodology.*

Kirish. Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishida antropotsentrik paradigmaning XX asr oxirlarida shakllanishi katta voqeliklardan biri bo'ldi. Bu paradigmda asosiy diqqat nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til sohibiga qaratiladi. Shu paradigma bo'yicha bajariladigan tadqiqot ishlarida tilga xos xususiyatlar shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etiladi. Shaxs omilining tadqiqi esa pedagogika fanining tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bir nuqtada kesishishiga olib keldi.

Tilning har qanday birligini shaxs omili asosida o'rganish kerakligi bugungi kunda ayon bo'ldi. Tilga xos birliklarni shaxs omili bilan uzviylikda o'rganish har qanday tabiiy tilning boshqa tizimlar – jamiyat, inson, ruhiyat, madaniyat, ma'naviyat, tafakkur bilan aloqador jihatlarini yoritib berishga xizmat qiladi. Har bir shaxsning tafakkur tarzi, bilimi, voqelikka bo'lgan baholash munosabati, milliy xarakteri, eng avvalo, uning tilida to'liq aks etadi.

Til va tafakkur, til va madaniyat, til va nutq o'rtasidagi aloqa masalasi hamma davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan masalalardan hisoblanadi. Insonning borliq haqidagi tasavvurlari va tushunchalari o'z-o'zidan emas, hayoti faoliyati davomida paydo bo'ladi hamda takomillashib boradi. Shaxs faoliyati davomida atrofidagi olam haqida ma'lumotlar to'playdi va bu ma'lumotlarni tilda akslantiradi, madaniyat esa ushbu voqelikning ajralmas qismlaridan biridir. Amerikalik tilshunos E.Sepir "madaniyat" tushunchasi, odatda, san'at, fan va din tushunchalari bilan chegaralanishini bayon qiladi. Zero, Uning fikricha, madaniyat tushunchasi ostida muayyan millatning e'tiqodi turadi, jamiyatning faoliyat tarzi va fikrlashini madaniyat belgilasa, aynan qanday fikrlashini til belgilaydi [12, 469].

Metodlar. Maqola mavzusidagi muammoni tahlil etishda nazariy-mantiqiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik tajriba o'tkazish, lingvokulturologik, komponent tahlil, mustaqil hamda ijodiy ishlarni tashkil etish singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Natijalar. Xorij adiblari asarlari matnida lingvokulturologik birliklar alohida tizim sifatida shakllangan. Yozuvchilar kishi ismlarining bir qismini o'z ma'nosida, bir qismini esa ko'chma ma'noda ifoda etgan. Masalan, Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasida lingvokulturologik birliklardan Aleksandridi, Koka, Xrista Alek, Petya, Paganini, Stradivari, Mida, Nina kabilari o'z ma'nosida ifodalagan. Ko'chma ma'noda qo'llangan ismlar jumlasiga Drakula (qonxo'r, vahshiy ko'chma ma'nosida), Otello (rashkchi ko'chma ma'nosida) kabilarni misol tarzida aytib o'tish mumkin. Tarixiy shaxs – Vlad Sepesh Drakulaning nomi badiiy adabiyotda begunoh, ojiz, kambag'al odamlarning qonini ichadigan vampir ko'chma ma'noda, aniqroq qilib aytganda, pretsedent nom sifatida qo'llanilgan.

Pretsedent nomlar ta'riflanayotgan va tavsiflanayotgan obraz xususiyatlarini aniq hamda ta'sirli ifodalashga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Ular lingvomadaniy birlik sifatida nafaqat emotsionallikni yuzaga keltiradi, balki obrazga to'g'ri va aniq bahoni ham beradi. Ko'chma ma'noda qo'llangan ismlarda obrazning tabiati, xususiyati va fazilatlarini – insoniyligi, mardligi, jasurligi, aqlliligi, saxiyligi, qo'rqqoligi, zulmkorligi, rashkchiligi, xasisligi kabilari aniq ifodalanadi.

Pretsedent nomlar odatda obrazlar haqida umumiy fikrni aniq, ta'sirchan va ixcham tarzda ifodalash uchun ishlatiladi. Ular ijtimoiy-siyosiy davr, ong, tafakkur hamda muhitga ko'ra o'zgarib turadi. Ularni yuzaga keltirish uchun uchta komponent: a) pretsedentlarning xususiyati; b) ijodkorning maqsadi; v) o'quvchining pretsedentni topish imkoniyati zarur bo'ladi. O'quvchining pretsedent nomlarni idrok etishi uning lingvistik tafakkuri va ongi, madaniyatni bilish va anglash darajasi hamda kitobxonlik tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. O'qituvchi mazkur masalaga doir fikrlarni o'quvchilarga tushuntirishda shu xususiyatlarni e'tiborga olishi kerak.

Mashhur adib Homerning “Iliada” dostonidagi pretsedent nomlarni o‘qitishda bu asarning asosiy mazmuni va g‘oyasini o‘quvchilar puxta tushunishlari uchun turli metodlardan foydalanish lozim. Pretseden nomlarning ko‘chma (majoziy) ma‘nolarini o‘quvchilarga o‘qitishda quyidagi namuna shaklidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

Homerning “Iliada” asaridagi pretsedent nomlarning ko‘chma ma‘nolari.

<b>№</b>	<b>PRETSEDENT NOM</b>	<b>KO‘CHMA MA‘NOSI</b>
	<b>Nestor</b>	<b>donolik va ziyraklik timsoli</b>
<b>1</b>	<b>Zeus</b>	<b>oliy xudo, xudolar va odamlar hukmdari;</b> <b>xudolarning irodasini va yaxshi niyatlarini to‘yobga chiqaruvchi</b> <b>ko‘plab qahramonlarning otasi, dahshatli jazolovchi kunch</b>
	<b>Prometey</b>	<b>mashhur xalk qahramoni; jasurlik timsoli</b>
<b>2</b>	<b>Axilles</b>	<b>botir, jasur, qahraman; jo‘shqinlik, peshqarlamlik</b>
<b>3</b>	<b>Agamemnon</b>	<b>shaxslarga xos ulug‘vochlik tamsi</b>
<b>4</b>	<b>Xera</b>	<b>nikoh, er-xotin o‘rtasidagi muhabbat va ko‘zi yurayotgan</b> <b>hummiladrlarning pusti-panahi</b>
<b>5</b>	<b>Herakl</b>	<b>mashhur xalk qahramoni, butun dunyodagi dengizlar hukmdari</b>

O‘quvchilarda xorij adiblari asarlari tilidagi lingvokulturologik birliklar bo‘yicha mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘qituvchi-pedagog o‘quvchilarning yosh, ruhiy, pedagogik va fiziologik rivojlanish xususiyatlarini chuqur bilishi, lingvokulturologik birliklarning maksad va mazmunini aniq idrok etishi shart.

Munozara. Antropotsentrik paradigma tarmoqlaridan biri – lingvokulturologiyaning eng muhim vazifalari tarkibiga milliy tafakkur, ong, madaniyat, ma‘naviyat, mentalitet, xarakter, umuman, milliy madaniyatning til bilan munosabatdorligi kabi masalalarni yoritish kiradi. Xalqning milliy o‘ziga xosligi (mentaliteti)ni uning madaniyati belgilaydi. Milliy mentalitet uchun turg‘unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlar, ayniqsa, milliy tilning barqaror birliklari muhim o‘rin tutadi. Zero, milliy tilning barqaror birliklarida uning asrlar davomida shakllangan, asoslangan, umummilliy xarakterdagi madaniy kodi – obrazlari saqlanadi.

Masalan, o‘zbek tilidagi baliqdek suzmoq, baliqdek og‘zini ochmoq o‘xshatishida etalon suv ichida erkin harakat qiladigan jonzotdir. Xuddi shu jonzot ingliz tilidagi as dumb as fish (baliqday to‘nka, kallavaram va ahmoq) o‘xshatishida boshqa o‘lchov uchun etalon vazifasini o‘taganini kuzatish mumkin. O‘zbek xalqi tilida kichkina, ixcham, dumaloqqa moyil shakldagi narsa, joylar haqida xabar beruvchi do‘ppiday (do‘ppiday osh, do‘ppiday hovli) o‘xshatishlari boshqa xalq tillarida uchramaydi. Bu kabi o‘xshatishlarda haqiqiy milliy ruh singdirilgan.

Xalqlar madaniyatiga doir bu kabi misollar juda ko‘plab uchraydi. Harakat va imo-ishoralar turli halqlarda har xil talqin qilinadi. Masalan, o‘zbek millatiga mansub o‘quvchi dars paytida mashg‘ulotdagi mavzuga o‘z munosabatini bildirmoqchi bo‘lsa, bir qo‘lini yuqoriga ko‘taradi. Nemislar esa bunday holatda ikki barmog‘ini ko‘taradi. Xitoy va yapon xalqlari o‘z boshiga tushgan kulfat boshqalarni ranjitmasligi uchun ular oldida jilmayishga harakat qiladi. O‘zbeklar barmog‘i bilan “bir, ikki, uch” deb sanaganida qo‘l barmoqlarini birma-bir buka boshlaydi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari xalqlarida esa, aksincha, barmoqlar birma bir yoziladi.

Lingvokulturologiyaga doir muammolar. Keyingi davrlarda xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar va xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlarning jadal suratlarida taraqqiy etishi yangi soha — antropotsentrizmning alohida yo‘nalishi – lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Mazkur yo‘nalish til va madaniyatning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha hisoblanadi. Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri va bog‘liqligini o‘rganishga e‘tiborini qaratadi. Pedagogikada lingvokulturologiya bilan aloqador tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyoj quyidagilar bilan izohlanadi: eng avvalo, umumjahon masalalarining tez sur‘atlarda globallashuvi. Bu yo‘nalishda turli xalqlarning urf-odatlar va muomala usullari xususiylik va umumiylik (universallik) kategoriyalari bo‘yicha tadqiq etilmoqda.

Ikkinchidan, ijtimoiy tafakkur va ongning taraqqiyoti. Hozirgi kunning pedagogi qator sohalarga oid



bilimlarning o'zaro kesishgan nuqtalarini juda yaxshi bilishi shart. Masalan, pedagog psixologiya, sotsiologiya, etnografiya, madaniyatshunoslik, tilshunoslik kabi fanlarning aloqadorligi masalalari bilan qiziqishi kerak. Hozirga qadar pedagogika haqidagi fanda, asosan, metodikaning o'zigagina katta e'tibor berilib kelindi. Metodikani falsafiy aspektida anglash hozirgi kunning eng muhim talabi hisoblanadi.

Uchinchidan, mazkur fan pedagogikaga doir bilimlarning amaliy tomoni bilan bog'liqligi. Bunda pedagogikaning jamoa tajribasiga asoslangan tomonlari o'rganiladi. Bular ta'lim va tarbiya masalalarini to'liq anglashga imkon beradi, madaniy leksik birliklarning semantik boyliklari, ularning ma'no nozikligi qirralarini aniqlashga zamin hozirlaydi, madaniy birliklarni o'rganishning maqsad va vazifalari mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Lingvokulturologik birliklarni o'qitish. Muayyan badiiy asarning tahlili, odatda, uch qismni o'z ichiga oladi. Bular: badiiy asar bilan tanishishning dastlabki bosqichida uning yaxlit mazmunini idrok etish, uning alohida elementlari bo'yicha jiddiy tahlil qilish, nihoyat, bu qismlarni yaxlit holatda birlashtirish. Adabiyotshunoslikdagi bu tamoyil maktab tahlili uchun to'la tatbiq etilishi joiz [13, 54]. Lingvokulturologik birliklarni o'qitishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

mazkur birliklarni muayyan xalqning xususiyatlari bilan o'zaro aloqador tarzda o'rgatish kerak;  
turli tillarga tegishli xalqlar dunyoni turlicha tushunishi va his etishi alohida e'tiborga olinishi lozim;  
har bir tilga xos bo'lgan xususiyat o'sha xalqning mentalitetiga ta'sir qilishini anglash shart;  
pedagogika fani bo'yicha ilmiy izlanishlar tilshunoslik, tarix va falsafa fanlari bilan o'zaro aloqadorlikda olib borilishi lozim.

Lingvokulturologik birliklar V.V.Vorobev, V.A.Maslova, V.V.Krasnix, S.V.Ivanova, N.D.Arutyunova, N.F.Alefirenko, T.F.Volkova, Ye.O.Oparina kabi xorij olimlarining ishlarida muayyan darajada tadqiq etilgan [4; 10; 9; 7; 1; 2; 3]. O'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalar A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", nomli maqolalarida hamda D.Xudoyberganovning "Matnning antropotsentrik tadqiqi" nomli monografiyasida o'rganilgan.

Olimaning mazkur monografiyasida antropotsentrik paradigma, uning asosiy yo'nalishlari o'rganilgan. Uning fikricha, til egalariga ma'lum, ularning lisoniy xotirasida muntazam mavjud bo'lgan, nutqiy faoliyatida tez-tez va qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jummlalar hamda matnlar lingvokulturologik birlik sifatida qayd etilishi kerak [14, 83].

Aytilganidek, keyingi davrlarda lingvokulturologiya bo'yicha tadqiqotlar doirasi kengayib bormoqda, tilning madaniyatga, aksincha, madaniyatning tilga o'zaro munosabatiga doir ko'plab yangi ilmiy fikrlar ifodalanmoqda. Madaniyat insonni inson sifatida shakllanishining asosiy omili, manbasi va usuli hisoblanishi, tilvamadaniyat o'zaro chambarchas o'zaro bog'langanligi, til madaniyat negizida paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning ifodalovchisi ekanligi, harqandaymadaniyatqat'iyemasligi, u'zini o'rab turgan muhit bilan hamohang va bog'liq ravishda doimo harakat va o'zgarishda bo'lishi aytib kelinmoqda [10, 10].

V.Gumboldt ilmiy asarlarida «shaxs-til-madaniyat» munosabatlarini tavsiflab, til xalq ruhiyatiga madaniyatining bebaho xazinasini ekanligini, xalq madaniyati shaxsning ichki va tashqi dunyosi munosabatlarini qamrab olishi, shuning uchun ham har bir til o'zi tegishli bo'lgan xalq irodasi hamda dunyo qarashini to'liq ifodalashini aytib o'tadi [5, 37].

E.Sepir esa lingvomadaniyat xususida quyidagilarni yozadi: "Til madaniyatning umumiy tarzidataraqqiyetis hining zaruriy shartidir hisoblanib, til madaniyatdantashqari, alohida mavjud bo'la olmaydi. Til milliy madaniyatning shakllanishi va rivoj topishigabevositata'sirko'rsatish imkoniyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Madaniyatni esa o'sha jamiyat kishilarining fikrlash usullari, tafakkur tarzi, xatti-harakatlari yig'indisi sifatida qabul etishsh mumkin" [12, 123].

Lingvokulturologiyada antroponimlar masalasi asosiy masalalar jumlasiga kiradi. Ayonki, antroponimlar ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutadi, ularda kishilarning qiziqishi, ehtiyoji, tafakkuri, madaniy-ma'naviy va etnik qarashlari o'z ifodasini topadi, ismlar muayyan xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy, ma'rifiy-ma'naviy hayoti bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Antroponimlar o'rta umumtalim maktablarining adabiyot darsliklari matnida ko'plab uchrashi bilan alohida ajralib turadi. Ularni madaniy belgilariga ko'ra nisbiy tarzda ikki guruhga ajratib o'qitish mumkin: o'zbek xalqiga xos ismlar (Elbek, To'lqin, Chechak va boshq.) va chet el xalqlariga xos nomlar (Rojer, Otello, Petr va h.k.).

Pretsedent nomlarni o'qitish. Muayyan til sohiblariga ma'lum va ularning lisoniy xotirasida muntazam mavjud bo'lgan, nutqiy faoliyatida tez-tez va qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari hamda barqaror so'z birikmalari pretsedent birliklar sifatida qayd etiladi [14, 83]. Ular eng muhim til hodisalaridan biri bo'lib, so'zlashuv, publitsistik, ayniqsa, badiiy adabiyot namunalari faol qo'llaniladi. Ularning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari, metodikasiga xos jihatlar monografik yo'sinda ko'p o'rganilgan emas.

Xorij adiblari asarlari matnida antroponimlar alohida tizim sifatida shakllanganligini kuzatish mumkin. Xorij adiblari kishi ismlarining bir qismini o'z ma'nosida, bir qismini esa ko'chma ma'noda ifoda etgan. Nodar

Dumbadzening “Hellados” hikoyasida antroponimlardan Aleksandridi, Koka, Xrista Alek, Petya, Paganini, Stradivari, Mida, Nina kabilari o‘z ma’nosida, ya’ni kishi ismlarini ifodalagan. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan ismlar jumlasiga Drakula (qonxo‘r, vahshiy ko‘chma ma’nosida), Otello (rashkchi ko‘chma ma’nosida) kabilarni misol tarzida aytib o‘tish mumkin. Pretsedent birliklarda biror predmet yoki voqea-hodisa haqida aniq, yaqqol va yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa biror kishining belgisi hamda xususiyati kabilari ko‘chiriladi, umumiy holatda o‘xshatiladi. Vlad Sepesh Drakula nomli knyaz butun dunyoga begunoh odamlarning qonini ichadigan vampir sifatida tanilganligi uchun u badiiy adabiyotga ko‘chirilgan. Vlad Sepesh Drakula XIV asrda Transilvaniyada Valaxiya (Ruminiya) knyazligini tashkil etgan. Rumin tilida Drakula so‘zi ajdaho degan ma’noni anglatadi. U juda ko‘plab odamlarni ayovsiz o‘tda yoqib o‘ldirgan. Tarixiy shaxs – Vlad Sepesh Drakulaning nomi badiiy adabiyotda begunoh, ojiz, kambag‘al odamlarning qonini ichadigan vampir ko‘chma ma’noda, aniqroq qilib aytganda, pretsedent nom sifatida qo‘llanilgan.

Bunday nomlar badiiy obrazning ichki olami va tashqi qiyofasini, uning eng muhim fazilatlari va xarakterini hamda tabiatialohida ajratib ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Pretsedent nomlar ta’riflanayotgan va tavsiflanayotgan obraz xususiyatlarini aniq hamda ta’sirli ifodalashga xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Ular lingvomadaniy birlik sifatida nafaqat emotsionallikni yuzaga keltiradi, balki obrazga to‘g‘ri va aniq bahoni ham beradi. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan ismlarda obrazning tabiati, xususiyati va fazilatlari – insoniyligi, mardligi, jasurligi, aqlliligi, saxiyiligi, qo‘rqoqligi, zulmkorligi, rashkchiligi, xasisligi kabilari aniq ifodalanadi.

Badiiy asarlarda pretsedent nomlar odatda obrazlar haqida umumiy fikrni aniq, ta’sirchan va ixcham tarzda ifodalash uchun ishlatiladi. Ular ijtimoiy-siyosiy davr, ong, tafakkur hamda muhitga ko‘ra o‘zgarib turadi. Ularni yuzaga keltirish uchun uchta komponent: a) pretsedentlarning xususiyati; b) ijodkorning maqsadi; v) o‘quvchining pretsedentni topish imkoniyati zarur bo‘ladi. O‘quvchining pretsedent nomlarni idrok etishi uning lingvistik tafakkuri va ongi, madaniyatni bilish va anglash darajasi hamda kitobxonlik tajribasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchi mazkur masalaga doir fikrlarni o‘quvchilarga tushuntirishda shu xususiyatlarni e’tiborga olishi kerak.

O‘xshatishlarni o‘qitish. Xorij adiblari asarlarida lingvokulturologik birliklardan o‘xshatishlar ham ko‘plab uchraydi. Ularni barcha shoir va yozuvchilarning asarlarida u yoki bu darajada uchratish mumkin. O‘xshatish orqali ijodkorlar muayyan bir narsaning muhim xususiyatini ajratib tasvirlashga, kitobxonning diqqatini unga qaratishga harakat qilishadi.

Ayonki, lingvokulturologiya tarkibidagi metafora, ramz, mifologema, etalon, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, nutqiy etiket kabilari orasida o‘xshatishlar eng asosiy lingvomadaniy birlik hisoblanadi. O‘zining qadimiy tarixiga ega, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy jihatdan taraqqiy etgan har bir xalqning tilida o‘xshatishlar alohida tizim sifatida shakllangan bo‘ladi. O‘xshatishlarning katta bir qismi miflarga borib taqaladi. Ular muayyan xalqning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusmlari, ruhiy olami, urf-odatlarini, diniy e’tiqodi va madaniyati bilan bevosita bog‘liq tarzda paydo bo‘ladi hamda taraqqiy etib boradi. Har bir xalqda o‘xshatishlarlar tizimining shakllanishiga mifologik dunyoqarash, diniy e’tiqod, ijtimoiy hayot, estetik qarash, geografik o‘rin, madaniy-ma’rifiy daraja, xalq og‘zaki ijodi, ilmiy-badiiy asarlar kabilari asos bo‘ladi.

O‘zbek tilida inson haqidagi turg‘un o‘xshatishlar quyidagi ma’noviy guruhlar bo‘yicha tasnif etish mumkin: 1) inson tana a’zolari bilan bog‘liq o‘xshatishlar (alifdek yoki sarvdek tik qomat, anorday yoki quyoshdekqizil yuz kabi); 2) insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq o‘xshatishlar (devday yoki tog‘day bahaybat, oyday yoki guldek go‘zal kabi); 3) insonning jismoniy xususiyati bilan bog‘liq o‘xshatishlar (ajdarhoday kuchli, gulday yoki billurday nafis kabi); 4) insonning ovozi bilan bog‘liq o‘xshatishlar (sherday yoki arslonday bo‘kirmoq, bo‘riday yoki sherday uvillamoq kabi); 5) inson nutqi bilan bog‘liq o‘xshatishlar (bulbulday sayramoq, itday qopmoq kabi); 6) insonning harakteri bilan bog‘liq o‘xshatishlar (itday yoki mushukday sadoqatli, musichaday yoki qushdek beozor kabi); 7) insonning holati bilan bog‘liq o‘xshatishlar (toshday yoki haykaldek qotmoq, ilonday to‘lg‘anmoq kabi); 8) insonning hatti-harakati bilan bog‘liq o‘xshatishlar (yov yoki it quvganday yugurmoq, o‘qdek otilib chiqmoq kabi) [14, 83].

O‘xshatishlarning maqsadi shundaki, u o‘quvchiga badiiy asarda ifodalangan fikrni idrok etishga, uning mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib borishga yaqindan yordam beradi. O‘xshatishlar o‘quvchida obrazli tasavvurlarni vujudga keltiradi, tasvirlanayotgan obraz, voqea-hodisalar yoki ifodalanayotgan his-tuyg‘ularga nisbatan katta qiziqish uyg‘otadi. Xorij adiblari asarlaridagi o‘xshatishlarni tushunilishi darajasiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga deyarli barcha xalqlar tilida qo‘llaniladigan o‘xshatishlarni kiritish mumkin. Ayonki, o‘xshatishlarning ayrimlari aksariyat tillarda ko‘p qo‘llanilganligi natijasida vaqt o‘tishi bilan barqaror o‘xshatishli birlikka aylanadi. Bunga misol sifatida sherday kuchli, quyon kabi qo‘rqoq, tulkidek ayyor, bo‘ri kabi och kabilarni aytib o‘tish mumkin. Bunday o‘xshatishlar deyarli barcha xalqlar nutqida ham, badiiy asarlar tilida ham faol qo‘llaniladi. Yuqorida keltirilgan o‘xshatishlar o‘zbek, ingliz, rus kabi xalqlari tillarida aynan mazkur mazmunda ifodalanadi.

Xorij adiblari asarlaridagi ikkinchi guruh o‘xshatishlarni milliy o‘xshatishlar tarzida tasniflash mumkin. Bunday o‘xshatishlar faqat muayyan xalqqa xos bo‘ladi va o‘sha xalqqa tushunarli bo‘ladi. Masalan: “Shapaloqday-

shapaloqday yuzlari sarg'aya boshlagan, mahzun va mungli qarashlari bilan sharq ayollariga o'xshab ketadigan va kelinchakdek titrab turgan bu g'o'zalar nelar demoqda?!" (N.Eshonqul. "Momoqo'shiq" qissasi). Ushbu badiiy matnda "sarg'aya boshlagan g'o'zalar" "titrab turgan kelinchak"ka o'xshatilganki, bunday o'xshatishlar xususan o'zbek madaniyatida kuzatiladi.

Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asaridan olinga quyidagi jummalarga e'tibor qarataylik: "– Qani endi yashirib qo'ygan joyimizdagi o'qlardan hozir ikkitaginasini bo'lsa, – deb qo'ydi ulardan biri. Azbaroyi madorsizligidan ovozi zaif chiqdi. O'zi behafsala gapirar edi; toshlarga urilib, ko'piklanib oqayotgan sutdek oppoq suvga endi oyoq bosgan sherigi esa, unga hech narsa deb javob bermadi". Mazkur badiiy matnda oppoq suv sutga qiyoslangan. Anglashiladiki, ingliz xalqlari madaniyatida shunday o'xshatish me'yor sifatida qabul qilingan. O'zbek xalqi madaniyatida sut bilan aloqador ona suti kabi halol yoki pok, xom sut emgan banda, sut bilan kirgan jon bilan chiqadi kabi o'xshatishlar qo'llanadi.

Shunga o'xshash yana quyidagi badiiy matnga e'tibor qarataylik: "Kechqurun u qamishlar orasidan ohakdek oppoq loyqalanib oqayotgan ariqcha yoqalab borardi. Bir qamishning ostidan mahkam ushlab, xuddi piyozga o'xshagan bir narsani sug'urib oldi. G'amishning tomiri yumshoq bo'lib, chaynaganda ishtahani ochib, qars-qars qilardi". Mazkur badiiy matn yuqorida nomi qayd etilgan asardan olingan bo'lib, unda oppoq suv ohakka o'xshatilgan. Bunday o'xshatish amerikaliklar madaniyatida kuzatilib, o'zbek xalqi madaniyatida esa oppoq suvni ohakka o'xshatilishi kuzatilmaydi. Adabiyot darsliklarida xorij adiblari asarlaridagi lingvomadaniy birliklarning mazmuni bo'yicha tavsiflar deyarli uchramaydi. Ularni o'qitish metodikasi bo'yicha ham shu fikrni aytish mumkin.

Uzluksiz adabiy ta'limga doir "Davlat ta'lim standarti, adabiy ta'lim konsepsiyasi, boshlang'ich sinflarning "O'qish", V-IX sinflar "Adabiyot" o'quv dasturi kabi rasmiy hujjatlarda sog'lom e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, aqlan yetuk komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirish masalasi ustuvor yo'nalish qilib belgilangan. O'quvchida hayotiy voqea-hodisalarni bilish, odamlarning ruhiyatini anglashga ehtiyoj tug'ilishi bilan adabiyotni anglashga qiziqish paydo bo'ladi. O'qituvchi badiiy asarni o'qitish orqali o'quvchilarda paydo bo'lgan ana shu qiziqishni rivoj toptiradi, ularni ulkan san'at olamiga olib kiradi, yoshi, bilim darajasini e'tiborga oliyu, badiiy didini o'stiradi [8, 87].

Adabiyot o'qitish metodikasi. Ayonki, metodika vaqtni tejash malakasi, o'quvchi kuchlarini oqilona sarflash, o'quv materialidagi asosiy xususiyatni topish malakasi, jamoa mehnatini tashkil qilish san'ati, o'quvchilardagi xilma-xil individualliklarga tayanadigan ta'sir tizimi hisoblanadi. Adabiyot o'qitish metodikasi pedagogika fanining uzviy qismi bo'lib, badiiy adabiyotni tadqiq etadi, adabiyot o'qitish usullarini ilmiy asosda ishlab chiqish va tatbiq etish, sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarning usullarini ishlab chiqishga e'tibor qaratadi. Uning asosini badiiy asarni ta'lim va tarbiyaning muhim vositasi sifatida o'rganish, o'quvchilarni badiiy-estetik tarbiyalash jarayoni tashkil etadi. Shu jarayonda o'qituvchi ijodkor yaratgan badiiy obrazlarning ahamiyatini o'quvchilar ongiga singdiradi, badiiy obrazning mohiyatini ochadi, o'quvchilarning ma'naviy va ruhiy dunyosini boyitadi [8, 10].

Adabiyot o'qitish metodikasi fani darsliklar tarkibidagi badiiy asarni tahlil qilish va uni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishidagi o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatish, badiiy asarni tahlil qilishda ularning tur va janr xususiyatlariga e'tibor berish, ta'lim bosqichlarida faqat badiiy asarning o'zini emas, balki ularga o'zaro bog'liq ravishda adabiy-nazariy tushunchalarni ham o'rganish yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish, adabiyot darslarini tashkil etish, lingvomadaniy birliklar bo'yicha tushuncha berish, sinfdan tashqari va mustaqil ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish yo'llarini ko'rsatish, o'z ustilarida muntazam ishlash, mustaqil ijodiy ishlarni tashkil etish yo'llarini ko'rsatishi bilan ham ahamiyatlidir.

Ijtimoiy ong taraqqiyoti adabiyotni o'qitish sohasida yangilanishlarni va yangicha yondashuvlarni taqozo etib turibdi. Hozirgi kunda yangi axborot texnologiyalari va zamonaviy pedadogogik texnologiyalardan foydalanish talabini qo'yimoqda. Ta'lim metodlarini samarali qo'llash, darsning har bir tarkibiy qismlariga e'tibor qaratish, adabiy ta'limning mazmunini to'lig'icha o'quvchilarga yetkazish, o'kuv dasturlari va darsliklar mazmunini Mustaqillik mafkurasiga moslashtirish eng muhim masala hisoblanadi.

Mazkur masalalar yechimi uchun samarali ish usullarini izlab topish, adabiy tahlilni yuksak darajada amalga oshirish, badiiy matn mazmuni va mohiyatiga yetishning turli yo'llarini mahorat bilan qo'llash, muayyan ijodkor badiiy asari mazmunida mujassamlashgan poetik olamga xos bo'lgan badiiyatni idrok etish hamda mushohada qilish muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Adabiyot kursini o'qitishning bosh yo'nalishi o'quvchilar ongiga badiiy asarning buyuk ta'sir kuchini amaliy jihatdan ta'minlash, yoshlar qalbida go'zallikka bo'lgan ijobiy va ijodiy munosabatlarni shakllantirish, ularga badiiy asarga bo'lgan muhabbatni o'stirish, ularning badiiy-estetik didni takomillashtirishdan iborat bo'lmog'i kerak. Adabiyot kursini o'qitadigan o'qituvchi bilishi kerakki, adabiyot o'quvchi ruhiyatining takomillashtirishida, uning shaxs sifatida shakllanishi va rivojida o'rni beqiyosdir.

Xulosa. Xorij adiblari asarlaridagi lingvokulturologik birliklarini o'qitish ahvoli masalasi doirasida quyidagi xulosalarni ifodalash mumkin:



dunyo hamjamiyati bir-biriga har qachongidan ham ko'proq intilayotgan hozirgi davrda faqat milliy adabiyotgagina e'tibor qaratish ozlik qiladi. Ijtimoiy ong va tafakkur taraqqiyotiga munosib qo'shgan chet el adiblarining asarlarini adabiyot dasturlari va darsliklariga kiritish ko'lamini kengaytirish kerak;

jahon pedagogikasida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini ta'limning asosiy tayanch nuqtasi deya e'tirof etilmoqda. Bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ta'limiy munosabatlarning yangicha bosqichini anglatadi. Pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining tom ma'nodagi hamkorligi yuzaga kelishi muhim hisoblanadi. Bu, ayniqsa, adabiy ta'limda ayricha ahamiyat kasb etib turibdi. Badiiy adabiyotni o'qish va o'rganish hamma payt ijodiy jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda o'quvchilarning boshqa millatlarning madaniyati bilan tanishishi jonli tarzda amalga oshishi lozim;

xorij adiblari asarlarini o'rganishda sharh va izohlarning o'rni kattaroq bo'lishi kerak. Asarni o'rganish avvalida ifodali o'qish maqsadga muvofiqdir. Badiiy adabiyot so'z san'ati sifatida o'quvchining ma'naviy olami shakllanishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatishini inobatga olib, asarning estetik tahliliga katta e'tibor qaratish kerak;

o'quvchilarga badiiy asar mazmuniga muvofiq ularning amaliy faoliyatlarida kerak bo'ladigan nazariy hamda amaliy ma'lumotlarning eng muhimlarini yetkazish, asar mohiyatiga aloqador ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirish o'rindir;

xorij adiblari asarlari bo'yicha adabiy ta'limni takomillashtirib, hozirgi zamon talablariga uyg'unlashtirib borish eng muhim vazifalar sirasiga kiradi. Adabiyotning o'quvchilarga ko'rsatadigan ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy, estetik ta'sirini yanada kuchaytirish, ulardagi mustaqil va ijodiy fikrlashga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, so'z san'ati vositasida go'zallikni his etishga oid did va tuyg'ularni takomillashtirish, badiiy matnga nisbatan ijodiy yondashuv tamoyillarini taraqqiy ettirish muhimdir.

Xorij adiblari asarlarini o'qitishga doir o'quv qo'llanmalarni yaratish, ularda qo'llangan lingvomadaniy birliklar bo'yicha izohli lug'atlarni tuzish zamon talablaridan orqada qolmoqda. Bugungi kunda samarali va yangi pedagogik texnologiyani joriy etish, jahondagi ilg'or o'qitish usullarini o'zbek xalqi ta'limiga joriy etishga jiddiy zarurat sezilmoqda. Masalaning bu tomoniga alohida e'tibor qaratishni ijtimoiy davr taqozo etib turibdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alefirenko N.F. (2010) Lingvokulturologiya: Sennostno-smislovoye prostranstvo yazika. -M.: Nauka. -288 s.
2. Arutyunova, N.D. (1999) Yazik i mir cheloveka. -M.: Nauka. -896 s.
3. Volkova, T.F. (2004) Sravneniya v rechi dialektnoy yazikovoy lichnosti: Dis. kand. ... filol. nauk. -Tomsk. -237 s.
4. Vorobev V.V. (1997) Lingvokulturologiya: teoriya i metodi. -Moskva.
5. Gumboldt V. fon. (1985) Yazik i filosofiya kulturi. Per. s nem./Sost. i obsh.red.A.V.Gulish,G.V.Ramishvili.- M.: Progress.
6. Zunnunov A., Hotamov N., Esonov J., Ibrohimov A. (1992) Adabiyot o'qitish metodikasi. -Toshkent: O'qituvchi. -332 b.
7. Ivanova S.V. (2003) Lingvokulturologicheskiy aspekt issledovaniya yazikovix yedinis: Diss. ... d-ra filol. nauk. -Ufa.
8. Kambarova S. (2019) Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi: Ped. fan. b. falsafa dok. (PhD) diss. -Samarqand. -196 b.
9. Krasnix V.V. (2002) Etnopsixolingvistika i lingvokulturologiya. -Moskva.
10. Maslova V.A. (2000) Lingvokulturologiya. -M.: Akademiya.
11. Saidov Yo. (2020) Lingvokulturologik tadqiqotlar metodologiyasi / Namangan davlat universiteti axborotnomasi. -Namangan. -№ 5. -B. 297-304.
12. Sepir E. (1993) Izbrannie trudi po yazikoznaniyu i kulturologii. -Moskva. -502 s.
13. To'xliyev B. (2010) Adabiyot o'qitish metodikasi. -Toshkent: Yangi asr avlodi. -157 b.
14. Xudoyberganova D. (2013) Matnning antropotsentrik tadqiqi. -T.: Fan. -83 b.